

O‘ZBEKİSTONDA MOLİYAVİY HISOBOTLARNING XALQARO STANDARTLARINI JORİY QILISHNING AMALDAGI HOLATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH (ATB AGROBANK MISOLIDA)

Abduxalilova Jamila Ixtiyor qizi

O’zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqola O‘zbekistonda moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini (MHXS) joriy etishning amaldagi holati va uni takomillashtirish masalalari o‘rganilib, ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqotda tijorat banklarida MHXS talablari asosida hisobot yuritish, aktivlar va majburiyatlarni baholash, shaffoflikni ta’minlash hamda hisobni raqamlashtirish mexanizmlari zamonaviy moliyaviy tahlil usullari asosida tahlil qilingan. «Agrobank» ATB misolida markaziy apparat va filial darajasida xalqaro standartlarga muvofiq hisobot yuritishning samaradorligi o‘rganilib, ularning moliyaviy barqarorlik va rentabellik ko‘rsatkichlariga ta’sir etuvchi omillar aniqlangan.

Kalit so‘zlar: xalqaro moliyaviy hisobot standartlari, tijorat banklari, bank aktivlari, hisobot tizimi, moliyaviy barqarorlik, risklarni boshqarish, raqamli tahlil, AT «Agrobank».

Annotation

This article explores the current state of the implementation of International Financial Reporting Standards (IFRS) in Uzbekistan and the issues related to their improvement, providing scientifically grounded recommendations. The research analyzes the application of IFRS requirements in commercial banks, the evaluation of assets and liabilities, the assurance of transparency, and the mechanisms of digitalization of accounting, all based on modern financial analysis methods. Using the example of “Agrobank” JSCB, the study examines the effectiveness of financial reporting in compliance with international standards at both the central office and branch levels, identifying factors that influence financial stability and profitability indicators.

Keywords: International Financial Reporting Standards (IFRS), commercial banks, bank assets, reporting system, financial stability, risk management, digital analysis, JSCB “Agrobank”.

Kirish

Tijorat banklari O‘zbekiston iqtisodiyotida real sektorni moliyalashtirishning muhim manbalaridan biri sifatida alohida o‘rin tutadi. Ularning moliyaviy hisobotlari xalqaro standartlar asosida yuritilishi nafaqat banklarning moliyaviy barqarorligini ta’minlaydi, balki butun iqtisodiyotning investitsiya jozibadorligini oshirishga xizmat

qiladi. Shu boisdan, tijorat banklari faoliyatida xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini (MHXS) joriy etish va ularning samarali qo'llanilishini ta'minlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. So'nggi yillarda mamlakatimizda bank-moliya tizimini isloh qilish, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va raqamli texnologiyalar asosida zamonaviy moliyaviy hisobot yuritish tizimini shakllantirish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, moliyaviy hisobotlarda shaffoflikni ta'minlash, aktiv va majburiyatlarni xalqaro talablarga muvofiq qayta baholash, risklarni to'liq aks ettirish mexanizmlarini joriy etish tijorat banklari, xususan ATB "Agrobank" faoliyatida ustuvor yo'naliшharden biri sifatida belgilangan.

Mavzuning dolzarbliги

Prezident Sh.M. Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan 2022–2026 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da tijorat banklari hisobotlarini xalqaro standartlarga moslashtirish, shaffoflikni ta'minlash hamda investorlarga ishonchli ma'lumot taqdim etish alohida ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Mazkur jarayonlarda ATB "Agrobank" misolida moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga o'tish, aktivlarning sifatini yaxshilash va ularni MHXS talablari asosida hisobga olish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni o'rGANISH ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur islohotlar tijorat banklarida moliyaviy hisobotlarni takomillashtirish, shaffoflikni ta'minlash hamda aktivlarning real qiymatini xalqaro standartlarga muvofiq aks ettirish dolzarb masala ekanini yaqqol ko'rsatmoqda.

Bugungi kunda global moliya bozoridagi o'zgarishlar, raqamli bank xizmatlarining jadal rivojlanishi va iqtisodiy barqarorlik talablarining ortishi moliyaviy hisobot metodologiyasini chuqur tahlil qilish hamda uni milliy bank tizimi sharoitiga moslashtirishni talab etmoqda. Shu sababli, Agrobank amaliyotida xalqaro standartlarga muvofiq hisobot yuritish, aktiv va majburiyatlarni to'g'ri baholash va ularga oid axborotlarni shaffof taqdim etish jarayonlari alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois, bank aktivlari va majburiyatlarini xalqaro standartlar asosida hisobga olish mexanizmlarini ilmiy asosda o'rGANISH, shuningdek, moliyaviy hisobotlarni takomillashtirish bo'yicha yondashuvlarni ishlab chiqish O'zbekiston bank sektorining barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Tijorat banklari, jumladan Agrobank aktivlari tarkibi yildan-yilga murakkablashib bormoqda.

METODOLOGIYA

Tadqiqotning asosiy maqsadi O'zbekistonda moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini (IFRS) joriy qilish jarayonini tahlil qilish va uni takomillashtirishga oid ilmiy asoslarni o'rGANISHdir. Bu maqsadga erishish uchun aralash tadqiqot dizayni (mixed-method design) qo'llanilib, nazariy va empirik usullar birlashtiriladi. ATB Агробанк misolida moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga muvofiqlik

darajasi, bank tizimining shaffofligini oshirish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash yo‘nalishidagi amaliy jarayonlar chuqur tahlil qilinadi. Xalqaro va milliy tajribalar asosida bu jarayonlarni samarali amalga oshirishga yordam beradigan ilmiy tavsiyalar ishlab chiqiladi. Tadqiqotda moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini (IFRS) joriy qilishning amaldagi holati va uning samaradorligini baholash, shuningdek, banklar faoliyatida faoliyatning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan ilmiy izlanishlar amalga oshiriladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari (MHXS) va bank nazoratining xalqaro yondashuvlari nuqtayi nazaridan, aktivlarning qadrsizlanishini baholashda xalqaro moliya institutlari tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiylar alohida ahamiyat kasb etadi. Basel qo‘mitasi (Bazel, Shveytsariya) ekspertlari ta’kidlaganidek, bank tizimida aktivlardan foydalanish samaradorligini baholashda kapital yetarliligi (CAR), likvidlik qamrov koeffitsienti (LCR) va aktivlarning risk darajasi (RWA) kabi ko‘rsatkichlarni integratsiyalashgan tarzda tahlil qilish zarur. Ushbu ko‘rsatkichlar bank balansidagi aktivlarning sifatini baholash, ehtimoliy moliyaviy barqarorlik xatarlarini kamaytirish va aktivlar qadrsizlanishini oldini olishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, Rose & Hudgins o‘zining “Bank Management and Financial Services” asarida qadrsizlanishni baholashda faqat an‘anaviy moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan cheklanmaslik lozimligini qayd etadi. Ularning tadqiqotlarida quyidagilar alohida ta’kidlanadi. Aktivlarning bozor qiymati – moliyaviy hisobotlardaadolatliqiymatniaks ettirishva bozor sharoitlariga mos ravishda qadrsizlanishni aniqlash uchun zarur. Qayta baholash natijalari – aktivlar qiymatini yangilash orqali moliyaviy hisobotlarda ishonchlikni oshiradi. Vaqt omili (duration analysis) – aktivlar va majburiyatlar muddatlarini moslashtirish orqali qadrsizlanish ta’sirini o‘lchash va foiz stavkalari riskini boshqarishga yordam beradi. Demak, MHXSning nazariy asoslari bilan uyg‘un holda, Basel qo‘mitasi ko‘rsatkichlari va Rose & Hudgins yondashuvlari aktivlarning qadrsizlanishini baholashda kompleks yondashuvni shakllantiradi. Bu esa moliyaviy hisobotlarda aktivlarning real qiymatini ko‘rsatish, ularning risk darajasini aniqlash va investorlarga ishonchli axborot taqdim etishni ta’minlaydi.

O‘zbekiston bank tizimining islohotlar davrida olib borilgan mahalliy tadqiqotlar ham MHXS tamoyillariga uyg‘un ravishda aktivlar samaradorligini oshirishga qaratilgan. Xususan, olim I. Jurayev o‘z ilmiy izlanishlarida. Tijorat banklarida aktivlar rentabelligini oshirish uchun kredit portfeli sifatini yaxshilash va muammoli kreditlar ulushini kamaytirish zarurligini asoslab bergen. Faol aktivlarni boshqarishda risk-adjusted return on capital (RAROC) kabi ilg‘or ko‘rsatkichlardan foydalanish imkoniyatlarini ko‘rsatib o‘tgan. Ushbu yondashuv aktivlarning qadrsizlanish ehtimolini aniqroq baholash, risklarni samarali nazorat qilish va kapitaldan foydalanish darajasini oshirish imkonini beradi. Shunday qilib, xalqaro

tajriba va mahalliy ilmiy qarashlar bir nuqtada tutashadi: bank aktivlarining qadrsizlanishini oldini olish va ularni samarali boshqarish uchun valyuta risklarini hisobga olish, xarajatlarni qayta baholash mexanizmlarini takomillashtirish, shuningdek RAROC kabi ilg‘or metodlardan foydalanish zarur. Bu yondashuv MHXS konseptual asoslariga mos ravishda bank tizimining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

MHXSni joriy etish bo‘yicha chuqur tahlil olib borish orqali bank rahbariyati hisobotlarning shaffoflik darajasi, xalqaro talablarga mosligi hamda investorlar va tartibga soluvchi organlar uchun ishonchliligi qanchalik ta’minlanganini aniqlashi mumkin. Shuningdek, bu jarayon bank moliyaviy boshqaruvini takomillashtirishga qaratilgan optimal qarorlar qabul qilish imkonini yaratadi. Mazkur tadqiqotda 2020–2024 yillar davomida tijorat banklarida, xususan “Agrobank” ATB misolida, MHXSni joriy etishning amaliy jarayonlari chuqur o‘rganildi. Analiz jarayonida bir qator asosiy yo‘nalishlar qamrab olindi. Jumladan, moliyaviy natijalar hisobotining xalqaro talablarga moslashtirilishi, aktiv va majburiyatlarning tasnifi, kredit portfeli bo‘yicha yo‘qotishlarni baholash (ECL – Expected Credit Loss modeli asosida), likvidlik ko‘rsatkichlarini xalqaro andozalar asosida hisoblash, shuningdek, markaziy apparat va filiallar kesimida MHXSni qo‘llash darajasi shular jumlasidandir.

ATB “Agrobank” da moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlarining tahlili

Ko‘rsatkichlar	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil	2025 yil, IV-chorak	MHXS guruhiida
Aktivlar jami	39,971.2	53,068.2	66,699.7	79,403.8	95,655.9	Assets
Majburiyatlar jami	30,625.0	43,562.9	54,402.8	66,977.0	81,943.8	Liabilities
Xususiy kapital jami	9,346.1	9,505.3	12,296.9	12,426.8	13,712.1	Equity
- Ustav kapitali	–	–	11,180.2	11,800.0	12,430.1	Share capital
- Taqqsimlanmagan foyda	–	–	455.2	480.0	491.1	Retained earnings
- Zaxira kapitali	–	–	–	790.0	789.3	Other reserves

Aktivlarning o‘sishi – iqtisodiy o‘sishning asosi. 2021–2025 yillar davomida jami aktivlar 39,971.2 mlrd so‘mdan 95,655.9 mlrd so‘mgacha ko‘tarilgan, ya’ni 2,39 baravar o‘sish kuzatilgan. Bunday sur’at korxonada resurs bazasi kengaygani, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish hajmi oshgani, shuningdek, investitsion faoliyat samarali yo‘lga qo‘ylganidan dalolat beradi. Aktivlarning o‘sishi – iqtisodiy rivojlanishning asosiy belgisi. Moliyaviy nazariyada bu “resurs bazasining kengayishi” sifatida izohlanadi. Ammo aktivlarning hajman o‘sishi doim ham

rentabellikni kafolatlamaydi. Shu sababli ularning strukturaviy tahlili (aylanma aktivlar, uzoq muddatli aktivlar ulushi) ham muhimdir.

ATB “Agrobank” misolida balansni MHXS va milliy standart bo‘yicha solishtirish, (2025 yil 1-chorak, ming so‘mda)


Ko‘rsatkich	Milliy standart	MHXS	Farq (\pm)
Kassadagi naqd pul va to‘lov hujjatlari	2 151 091 904	2 173 979 661	+22 887 757
Markaziy bankdagi mablag‘lar	670 147 466	1 335 064 766	+664 917 300
Boshqa banklardan olinadigan mablag‘lar (sof)	5 835 074 902	6 792 625 471	+957 550 569
Qimmatli qog‘ozlar investitsiyasi (sof)	1 280 952 157	709 663 326	-571 288 831
Investitsiyalar (sof)	1 642 712 616	1 479 944 905	-162 767 711
Kredit va lizing operatsiyalari (sof)	59 436 048 199	73 945 801 336	+14 509 753 137

ATB “Agrobank” balansining Milliy standart va MHXS (xalqaro moliyaviy hisobot standartlari) bo‘yicha taqqoslanishi bankning moliyaviy holati va aktivlar tuzilmasidagi muhim tafovutlarni ko‘rsatib bermoqda. Avvalo, naqd pul va Markaziy bankdagi mablag‘lar xalqaro standartlarda sezilarli darajada ko‘proq qayd etilgan. Bu MHXS talablari likvid aktivlarni kengroq qamrab olishini anglatadi. Natijada, xalqaro hisobot investorlarga bankning qisqa muddatli to‘lov qobiliyati yuqoriligini ko‘rsatadi. Boshqa banklar va moliyaviy tashkilotlardagi mablag‘lar ham MHXS bo‘yicha qariyb bir trillion so‘mga ko‘proq. Bu esa interbank munosabatlarining xalqaro standartlarda yanada to‘liq ochib berilishidan dalolat beradi. Milliy standartlar esa ayrim qisqa muddatli resurslarni boshqa moddalarda tasniflaydi.

ATB “Agrobank” aktivlari dinamikasi va MHXSga o‘tishda IT tizimlari talabi

Yil	Jami aktivlar (trln so‘m)	Yuqori likvidli aktivlar (naqd, MB mablag‘lari)	Kredit portfeli (trln so‘m)	MHXSga o‘tishda IT talablar
2021	16,2	2,3	12,2	Asosiy hisob tizimlari, milliy standartlarga mos
2022	23,8	2,5	18,5	Kredit risklarini kuzatish dasturlari
2023	19,8	1,6	14,9	ECL (Expected Credit Loss) moduli integratsiyasi
2024	28,9	1,7	22,0	MHXS formatida balans tayyorlash tizimlari
2025 (I-yarim yillik)	32,1	3,4	25,0	Real vaqt rejimida hisobot va data-analitika

2021–2022 yillarda asosan milliy standartlarda ishlagan mutaxassislar xalqaro hisobot tamoyillari bilan tanishtirildi. 2023–2024 yillarda esa malaka oshirish dasturlari, xorijiy ekspertlar ishtirokida seminar va treninglar tashkil etilib, xodimlarning MHXS asosida moliyaviy hisobot tayyorlash bo‘yicha ko‘nikmalari mustahkamlandi. 2025 yilning birinchi yarmida esa bank xodimlarining katta qismi xalqaro hisobot standartlari bo‘yicha ishslash malakasiga ega bo‘lib, bu bankning shaffof moliyaviy hisobotlarini tezkor tayyorlash imkoniyatini yaratdi. Dinamik tahlil shuni ko‘rsatadiki, 2021 yilda “Agrobank”ning aktivlari 16,2 trln so‘m bo‘lgan bo‘lsa, 2024 yilga kelib 28,9 trln so‘mga yetdi, 2025 yilning birinchi yarmida esa 32,1 trln so‘mni tashkil etdi. Aktivlarning tarkibida yuqori likvidli va likvidli aktivlar ulushi sezilarli o‘sdi, nolikvid aktivlarning hajmi esa kreditlash faoliyatining kengayishi hisobiga oshdi. Bu jarayonlar MHXS talablariga mos ravishda qayd etilishi uchun IT tizimlarning kengaytirilishi va xodimlarning analistik ko‘nikmalari zarur bo‘ldi.



Xulosa va Taklif

ATB “Agrobank” misolida moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini (MHXS/IFRS) joriy qilishning nazariy hamda amaliy jihatlarini o‘rganish, amaldagi holatni baholash va hisobot tizimini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iboratdir. Tadqiqot davomida MHXSni samarali joriy qilishga xizmat qiluvchi zamonaviy yondashuvlar (IFRS talablari, Basel qo‘mitasi tavsiyalari, KPI tizimi hamda byudjetlashtirish mexanizmlari)ning qo‘llash imkoniyatlari baholandi va ular asosida milliy bank amaliyoti uchun moslashtirilgan takliflar ishlab chiqildi.

1. Tijorat banklarida moliyaviy hisobot tuzilmasi va boshqaruv shakllari. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, amaldagi amaliyotda bank hisobotlari ko'proq iqtisodiy belgilarga — balans aktivlari, investitsiyalar, asosiy vositalar va boshqa ko'rsatkichlar kesimida shakllantirilmoqda. Biroq hisobotlarni xalqaro talablarga muvofiq ravishda risk markazlari va likvidlik darajalari bo'yicha chuqur tahlil qilish yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan. Bu esa MHXS doirasida talab etiladigan shaffoflikni ta'minlashga to'sqinlik qiladi.

2. Byudjetlashtirish va KPI tizimlarining samaradorligi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, moliyaviy hisobotlarni yuritishda KPI ko'rsatkichlari (ROA, ROE, NIM, aktivlar aylanish tezligi) va byudjetlashtirish tizimini uyg'unlashtirish yuqori natijalar beradi. Xalqaro tajribaga (Basel Committee, 2023; Khadivar, 2024) muvofiq, byudjetlashtirish resurslardan foydalanishni nazorat qilish imkonini bersa, KPI tizimi hisobotlarning samaradorlik va rentabellik darajasini muntazam o'lchashga xizmat qiladi. Ammo bu yondashuv O'zbekiston bank amaliyotida hali keng qo'llanilmagan.

3. MHXS standartlarining qo'llanishi. IFRS standartlari asosida o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, ATB "Agrobank" hisobotlarini xalqaro talablar asosida qayta shakllantirish orqali mavjud tafovutlarni aniqlash mumkin. Masalan, 2023 yilda balanslarda likvid aktivlarning ulushi kamayib, kredit portfeliga qaramlik kuchaygan bo'lsa, 2024 yilda yuqori likvidli aktivlar ulushi 10,4 foizga yetib, investitsion faoliyat kengaygani qayd etildi. Bu esa bank hisobotlarini diversifikatsiya qilish jarayonining bosqichma-bosqich rivojlanayotganidan dalolat beradi.

4. "Agrobank" moliyaviy hisobotlarining 2021–2024 yillardagi dinamikasi. Tahlillar natijalariga ko'ra, 2022–2023 yillarda kredit portfeli va nolikvid aktivlar hajmi oshgan bo'lsa, 2024 yilda investitsion faoliyatning kengayishi natijasida likvid aktivlar ulushi ko'paydi. Bu esa MHXS asosida balansli yondashuv va diversifikatsiyaning zaruriyatini tasdiqlaydi.

Amaliy tahlil natijalari va tavsiyalar. ATB "Agrobank" misolida o'tkazilgan amaliy tahlillar shuni ko'rsatdiki, xalqaro standartlarga asoslangan hisobot yuritish bank faoliyatida nafaqat qisqa muddatli shaffoflikni oshiradi, balki uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni ham ta'minlaydi. Hisobotlarda qayd etilgan o'zgarishlar shuni tasdiqlaydiki, kreditlash asosiy daromad manbai bo'lsa-da, diversifikatsiyani kuchaytirish zarur. Shuningdek, MHXS talablari asosida KPI tizimidan foydalanish va byudjetlashtirishni yo'lga qo'yish bank hisobotlarining shaffofligini ta'minlab, resurslardan foydalanishda samaradorlikni oshiradi. Shu bois, zamonaviy boshqaruv yondashuvlaridan kompleks foydalanish MHXSni milliy amaliyotga muvaffaqiyatlari etibor etish va xalqaro taqqoslanuvchanlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanimgan adabiyotlar ro‘yxati

- 1.Q.H.Berdiyev. Hususiy Kapitalning buxgalteriya hisobi va auditini takomillashtirish masalalari / Monografiya. Qarshi. “Intellekt” nashriyoti, 2023.-146 bet.
2. Ahmed, R. (2021). Risk Analysis in Commercial Banking. Journal of Financial Auditing, 27(4), pp. 120–135.
3. Kyiu, A. va Tawiah, V. (2025). IFRS 9 implementation and bank risk. Accounting Forum, 49(1), 234-258.
4. Bley, J., Saad, M. va Samet, A. (2019). Auditor choice and bank risk taking. International Review of Financial Analysis, 61, 37-52.
5. Hoelscher, J., Reed, B.J. va Sierra, G.E. (2019). The effect of insured liabilities on the demand for external audits: The case of privately-held United States banks. J. of Corporate Accounting & Finance, 30(3), 8-19.
6. Buxgalteriya hisobi: Darslik / A.A. Karimov, J.E. Kurbanbayev, S.A. Jumanazarov; — T.: “Iqtisod-Moliya”, 2019. 624 b.
7. Karaliyev T.M., Qurbonov R.B., Rustamov M.S. Banklarda buxgalteriya hisobi (Matn): o ‘quv qo‘llanma / T.M. Karaliyev, R.B. Qurbonov, M.S. Rustamov. - Toshkent: «ZEBO PRINT», 2021. - 344 b.
8. Z.A.Umarov. Banklarda buxgalteriya hisobi (darslik). --T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», nashriyoti 2021, 612 b.
9. <https://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi
9. <https://stat.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentlig
- 10.<https://audit.gov.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi rasmiy sayti
11. <https://ifrs.org> – Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) rasmiy sayti
12. <https://bis.org> – Bank for International Settlements (Basel qo‘mitasi) rasmiy portali